

Hikmatli latifalar

Mavlono Jaloliddin Rumiy uylarida yeydigan hech vaqo qolmaganini xabar bergan ayollaridan qayta-qayta soʻrayveribdilar:

- Hech narsa qolmadimi?
- Yoʻq.
- Ogʻizga oladigan hech vaqo yoʻqmi?
- Yoʻq.
- Hech narsa-ya?
- Hech narsa...
- Rostdanmi?!

Xazrati Mavlono shodliklaridan yuzlari gul-gul yonib, qoʻllarini duoga ochdilar:

-Allohim, senga hamdu sanolar boʻlsinki, uyim Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning xonadoniga oʻxshabdi.***

Bir kishi Hasan Basriy (q.s.) hazratlarining oldilariga kelib: “Falonchi sening haqqingda falonday pistonday nomaʼqul gaplarni gapirdi”, debdi.

- Qachon?
- Bugun.
- Qaerda?
- Uyida.
- Uning uyida nima qilayotgan eding?
- Ziyofatga boruvdim.
- Ziyofatda nima yeding?

Xaligi kishi sakkiz xil taomning nomini sanadi.

Shunda Hasan Basriy (q.s.):

-Oʻsha odamning sakkiz xil taomi qorningga sigʻdiyu bir ogʻiz soʻzi sigʻmadimi? Tur, ket bu yerdan! – dedilar va gʻiybatchini dargohlaridan quvib chiqardilar.

Bir xristian popi oʻlkamizga kelib, yoshgina boladan cherkovning yoʻlini soʻrabdi.

Bola popni cherkovga kuzatib qoʻyibdi. Minnatdor pop debdi:

- Barakalla, oʻgʻlim! Ertaga ham shu yerga kelsang senga jannatning yoʻlini koʻrsataman.

Bola javob beribdi:

- Cherkovni yoʻlini bilmagan jannatning yoʻlini qaerdan bilardingiz?!

Boyazid Bistomiy hazratlari jinnixonaga yonidan oʻtayotganlarida, bir tabibning havonchada dori maydalayotganini koʻrib:

-Behad gunohkorman, – debdilar, – shu kasalimga qarshi doring bormi?

-Tabib boshini koʻtarib ulgurmasdan, jinnixonaga panjarasidan qarab turgan bir xasta javob beribdi.

-Tavbaning tomiri bilan istigʻforning yaprogʻini aralashtir. Qalb havonchasida tavhid toʻqmogʻi bilan tuyib maydala. Insof elagidan oʻtkaz, koʻz yosh bilan yoʻgʻir, ishq tandirida pishir va bomdod bilan shom orasida koʻproq tanovvul qil. Koʻrasan xastaligingdan asar ham qolmaydi.

Bistomiy hazratlarining koʻzlari jiqqa yoshga toʻlib debdilar:

-Yo, Robbim! Bu dunyo xastaxonasida ne tabiblaring bor!!!

Tarix sohasida jahon miqyosida tengi kam olimlardan boʻlgan Mahmud Kamoldan soʻradilar:

-Sizdagi bilimning o'ndan biriga ham ega bo'lmaganlar sizdan bir necha barobar ko'proq tanildilar. Buning sababi nimada ekan?

-Min bilmoq uchun o'rgandim, ular bilinmoq uchun!

Hazrati Bahouddin Naqshband (q.s.)dan muridlari bir karomat ko'rsatishni so'rashdi. Hazrat o'rinlaridan turdilar-da, yengil-engil besh-olti qadam yurib, yana joylariga cho'kdilar. Muridlar hayron bo'lib qarashdi. Hazrati Naqshband (q.s.) dedilar:

-Ikki yelkamda tog'day-tog'day gunohlarni ko'tarib, qushday yengil yurishimning o'zi karomat emasmi?!

Bir kishi mashhur turk shoiri Mahmad Akif Ersoyni mazax qilmoqchi bo'libdi:

-Afangim, siz mol do'xtirligini bitirgan edingiz-a?

-Ha, bir yering og'riyaptimi?!

Bir olim g'iybatchiga debdi:

-Aytaylik, sen yomonlayotgan odamning obro'si kamaydi, ammo bu to'kilgan obro' senikiga kelib qo'shilmaydi-ku!

Bir boy davlatmandligidan kerilib, shayxga debdi:

-Sizga qancha pulu oltin kerak bo'lsa, mana mendan so'rang!

-Yo'q, – debdi shayx. – Men qulimning qulidan narsa so'ramayman.

-Ie, qanaqasiga sizga qul bo'lay? – darqaxr bo'libdi boy. Shayx javob beribdi:

-Nafs mening o'ulim, sen esa nafsning qulisan!..

O'qituvchi:

-Inson odamsimon maymundan paydo bo'lgan.

O'quvchi o'qituvchiga ishorat qilib past ovozda:

-Ba'zilar odamsimon eshakdan.

Dunyoda hech qanday dalil qolmagan taqdirda ham, bir mikrobnning hayoti Allohni anglash va anglatish uchun yetarlidir.

PASTERNAK.

Dunyo yasangan, bezangan chiroyli bir kelinchak kabidir! U barchaga kulib boqadi, ammo hech kimga tegmaydi.

Dunyoning bu kayfiyatini anglagan buyuk zotlarimiz unga qiyo ham boqmay o'tib ketaveribdilar.

Biz yo'lda uchrashdik Azon eshitildi.

-Yur, jome'ga – dedim. – Bugun jum'a!

-Masjidga bormasligimni bilasan-ku, – dedi.

-Bilaman-u, ammo qachongacha bormaysan?!

-Nima desam ekan, ruhim to'g'ri kelmaydi. Hali tayyor emasman. Qolaversa, shimimning tizzalari titilib, dazmoli buzilishidan ham qo'rqaman... arzimaydi...

Kulgim qistadi.

-Hazillashyapsanmi?

-Hazil-pazili yo'q. Oq kiyimni yaxshi ko'rishimni, dog' tushirmasligimni bilasan-ku!

Haqiqatan ham, shunday edi. U ko'pincha oq kiyim kiyardi. Kiyimlari doim dazmollangan, toza, ozoda edi...

Oradan ikki oy o'tib, bexos, uning jome' masjidida ekanligini eshitib qoldim. Yugurdim. Jome'dagi nomoz saflarining eng oldida edi.

Sekin-asta oldiga yaqinlashib past ovozdagi:

-Qani, og'ayni, senga nima bo'ldi? Masjidga bormayman demaganmiding? – deb so'radim.

Undan sado chiqmadi. Chunki boshdan oyoq oppoq kafanga o'rangancha tobutda yotar, uning uchun janoza namozlarini o'qishlarini kutar edi.

Saljuq sultonlaridan biri, mavlono Jaloliddin Rumiyni ziyorat qilib, gap asnosida saltanatlari orasidagi farqni so'rabdi.

-Sening saltanating, to ko'zing ochiq turgan muddatgacha davom etadi. Meniki esa ko'zim yumilganidan keyin boshlanadi, – debdi mavlono.

Yo'lda o'zlariga to'qnash kelayotgan molni ko'rib, Imom A'zam yo'l beribdilar. Sababini so'raganlarga esa shunday javob qilibdilar:

-Molning shoxlari bo'lsa, mening aqlim bor!

Muallim savol qildi:

-Bolalar, agar Alloh hammamizning jannatga kirishimizni istasa, nega bu dunyoga yubordi?

-Bir o'quvchi o'rnidan turib javob berdi:

-Muallim siz ham hammamizning a'lo baholar bilan sinfdan sinfga ko'chishimizni istaysiz, ammo nega imtihon qilasiz. Barchamizga birday besh baho qo'yib chiqmaysiz?!

O'qituvchi keltirgan qant-qursini yashirib darsga kirdi-da, o'quvchilarga qarab:

-Alloh bor deydiqanlar, qani, hozirning o'zida bergin deb undan biron nima, masalan, qand so'rashsin-chi, Allohlar ularga berarmikin. Ammo mendan so'rasangiz shu zahoti berishim mumkin, – debdi. O'qituvchining hiylasini bilib qolgan bir o'quvchi debdi:

-Muallim, qand menga allergiya beradi, yaxshisi sizdan bitta olma so'ray qolay...

Boyazid Bistomiy hazratlaridan:

-Siz suv ustida yurar emishsiz. Qanday qilasiz? – deb so‘radilar.
-Bir quruq yog‘och ham suvda yuradi. Biz yog‘ochcha bo‘lmadikmi?!

Nasriddin Xo‘jadan so‘radilar:

-Xo‘jam! Shu, dunyo necha chaqirim kelarkin?
Shu asno yonlaridan tobut ko‘tarib o‘tdilar. Nasriddin Xo‘ja tobut tomonga ishorat qildi:
-Ana undan so‘ranglar, o‘lchash ishini bitirib qaytyapti!..

Najib Fozil kemada kitob o‘qib ketayotgan ekan. Muxlislaridan biri yaqinlashib:

- Ustoz, dunyoga payg‘ambar yuborishning nima keragi bor edi? Alloh aql berib qo‘yibdi,
yo‘limizni o‘zimiz ham topib olardik, – debdi.

Najib Fozil kitobdan bosh ko‘tarmay javob beribdi:

- Kemaning nima keragi bor. Dengizdan o‘zing suzib o‘taver!..